



## O'ZBEKISTONDA INTRODUKSIYA QILINGAN ZAYTUN KO'CHATLARINI MOSLASHTIRISH VA FENOLOGIK FAZALARINING BORISHI

**Yuldashyeva Xavasxon**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti "Intensiv  
sabzavotchilik, bog'dorchilik uzumchilik va issiqxona xo'jaliklari"  
kafedrasini (PhD) v, b dosenti,

**Toxirjonova Fotima Muzaffar qizi**

**Toxirjonova Zuxra Muzaffar qizi**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Mevachilik  
vauzumchilik ta'lim yo'nalishi, talaba.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8050128>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-June 2023 yil

Ma'qullandi: 15-June 2023 yil

Nashr qilindi: 17-June 2023 yil

### KEY WORDS

*Shu yillar davomida 14 ta  
keltirilgan kolleksiyadagi nav  
zaytunlarning moslashishini va  
fenologiyasini o'rganildi*

### ABSTRACT

*Zaytun novdalari bo'yiga har yili havoning sutkalik  
harorati +7 0S ga yetganda o'sishga boshlaydi. Barcha  
daraxtlar kabi zaytunda ham tashqi muhit omillariga  
bog'lik bo'lib, namlik va harorat asosiy o'rinni egallaydi.  
Novdalarning o'sish tezligi ularning qaysi yarusda  
joylashganiga ham bog'lik bo'ladi.*

Zaytun daraxti ko'pgina mamlakatlarda o'sa olishi, eng noqulay sharoitlarga tez moslashuvchan, qurg'oqchilikka chidamli, unumdorligi past, toshli, qumli va nisbatan sho'rlangan tuproqlarda o'sa oladi, havoning harorati -11-12 0Sgacha bo'lganda sovuqdan zarar ko'rmaydi, past harorat -16 0Sdan oshganda o'simlik nobud bo'ladi. Zaytun o'simligini keyingi 5 yil davomida o'rganish natijasida olib borgan kuzatishlarimiz shuni berdiki, zaytun o'simligining respublika tuproq iqlim sharoitiga moslashib bormoqda, zaytun navlari keltirilgan mamlakatlarda yillik yog'in miqdori 2-3 martaga ziyod va havoning nisbiy namligi ham O'zbekistonga qaraganda yuqori hisoblanadi. Kuzatishlar iqlim sharoitlariga qarab zaytun navlarining fenogruppasida o'suv davri boshlanishi va tugashida alohida muddat yo'qligini ko'rsatadi. Shu yillar davomida 14 ta keltirilgan kolleksiyadagi nav zaytunlarning moslashishini va fenologiyasini o'rganildi.

Olingan fenologik kuzatishlar zaytun turlarida o'suv davrining boshlanishiga qarab zaytun navlarining o'suv davrining boshlanishi va zaytun novdalarida vegetativ orgshanlarinig tinim davri boshlanishi muddatlari aniqlandi. Biz o'z tajribalarimizda zaytun ko'chatlarining parvarishi bo'yicha bir qator kuzatishlar olib bordik. Gaziantep, Kordjola O'zbekistonda iqlimlashtirilgan Izumrud va Qorako'z navlaridan olingan ko'chatlar agrotexnik talablari asosida 6x6 kenglikda ekildi. Har bir ko'chat uchun alohida chuqur qazilib unga organik moddalar va bir osh qoshiq ammiak selitrasi 1 litr suvda eritilib chuqurga to'kildi. Aprel oyidan boshlab zaytun ko'chatlarida barg va birinchi ikkinchi tartib yon shoxlar soni sanab chiqildi va shoxlarning o'sishi o'lchandi.

Zaytun novdalari bo'yiga har yili havoning sutkalik harorati +7 0S ga yetganda o'sishga

boshlaydi. Barcha daraxtlar kabi zaytunda ham tashqi muhit omillariga bog'lik bo'lib, namlik va harorat asosiy o'rinni egallaydi. Novdalarning o'sish tezligi ularning qaysi yarusda joylashganiga ham bog'lik bo'ladi. Zaytun ko'chatlarining o'sishi va yon shoxlarini hosil bo'lishini o'rganganimizda 30 aprelda Gaziantep navi ko'chatlarining bo'yi balandligi o'rtacha 80-96 sm bo'lsa, 15 iyulda 123-135 smga yetdi, Izumrud navida zaytunning bo'yi balandligi 30 aprelda 70-83 sm bo'lgan bo'lsa, 15 iyulda esa 108-120 smni tashkil qildi. Qorako'z navida bo'yining balandligi 82-93 sm bo'lgan bo'lsa 15 iyulda bu ko'rsatkich 120-134 smni tashkil qildi, Izumrud navi bo'yining balandligi jihatidan nisbatan boshqa nav va liniyalarga qaraganda past bo'lyi hisoblandi. Birinchi tartib yon shoxlarning uzunligi Gaziantep va Qorako'z navida deyarli bir xil 30 aprelda 23-25 smni tashkil qildi. Izumrud navining novdalari uzunligi 18-21 sm bo'ldi. Ikkinchi tartib yon shoxlarining rivojlanishida ham ushbu qonuniyat saqlanib qoldi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, zaytun navlarida hosil bo'lgan birinchi va ikkinchi tartib shoxlarning hosil bo'lishida bir qator o'ziga xoslik mavjud ekanligi aniqlandi. Gaziantep navining bo'yining balandligi boshqa navlarga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Hosil bo'lgan yon shoxlar soni Gaziantep va Qorako'z navida deyarli bir xil ekanligi tajribalarimizda ma'lum bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S., Yuldasheva X.T. Zaytun yetishtirish usullari. – Toshkent, 2015. –B. 3-11.
2. Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S., Yuldasheva X.T O'zbekiston zaytuni. – Toshkent, 2016. – 14-34 b.
3. Farg'ona vodiysi sharoitida iqlimlashtirilgan zaytun navlarini yetishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlar sxemasi (Tavsiyanoma) Toshkent 2019 yil.